

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
TABIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

KIMYO

C.Ш.Кабиров, М.Б.Холиков

Технологические методы переработки фруктов и овощей 226

B.K.Boboyev, N.N.Yusupova

Yangi O'zbekistonda chorvachilikni innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish istiqbollari 230

S.S.Toyirov

O'zbekiston qishloq xo'jaligining texnika bilan ta'minlash va undagi dastlabki muammolar 233

M.A.Mirzayeva, N.I.Teshaboyev, M.Z.Mamadaliyev

Pomidor o'simligining biologik xususiyatlarini o'rganish 237

I.I.Musayev, A.T.Turdaliyev, A.A.Ahmadjonov, Y.H.Muhammadov

Och tusli bo'z tuproqlar unumdorligi va ularda uzum hosildorligi 241

S.X.Zakirova, Z.M.RajavaliyevaFarg'ona viloyatining eskidan sug'orilgan tipik bo'z tuproqlari va malboro navli malina (*Rubus idaeus*) yetishtirish 246

GEOGRAFIYA

X.S.Mirzaaxmedov

Farg'ona iqtisodiy rayoni investitsion muhiti (iqtisodiy geografik tahlil) 253

D.A.Toymbayeva

Shamollarni o'rganish va tadqiq etishda geoaxborot tizimlari (Sirdaryo viloyati hududida misolida) 262

Sh.X.Turdiboyeva

Qadamjoylar va ziyoratgohlarda turizm va rekreatsiyani rivojlantirish istiqbollari (Farg'ona vodiysi misolida) 267

I.I.Muxitdinov

Kriminogen vaziyatni shakllantiruvchi omillar va ularning tasnifi (Farg'ona viloyati misolida) 273

R.T.Pirnazarov

O'rta Osiyo to'g'onli ko'llarining suv toshqini xavfini genetik-geomorfologik baholash asoslari 278

K.Khamraev

Territorial organization and development prospects of the food industry in Samarkand region 285

EKOLOGIYA

H.P.Zakirova, M.K.Yuldashov

Инновационная "Проблемная" технология в образовании: применение на уроках экологии 290

N.R.Alimkulov, Sh.G.Qarshiboyeva, G'.D.Jangirov

Iqlim o'zgarishi sharoitida Mirzacho'l litogen va gidroiqlimiy muhitining agrolandshaftlar shakllanishidagi o'rni 294

ILMIY AXBOROT

M.Y.Sultonov

Tarixiy xotira va ma'naviy meros: Sharq mamlakatlari tajribasi 302

M.U.Mahmudov*Rhynococris iracundus* (Heteroptera: Reduviidae) turining Farg'ona vodiysida tarqalishi va biologik kurashdagi o'rni 306

ILMIY AXBOROT

M.X.Akbarova, D.Sultonov, Z.A.Yusupova, N.S.Salimova, F.F.MahmudovHayotini ilm-fan va ta'limga bag'ishlagan fidoyi olim, mehribon ustoz (*Valijon Mahmudov tavalludining 75 yilligiga bag'ishlanadi*) 302



UO'K: 631.372(575.1)

O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING TEXNIKA BILAN TA'MINLASH VA UNDAGI DASTLABKI MUAMMOLAR

ОБЕСПЕЧЕНИЕ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА УЗБЕКИСТАНА ТЕХНИКОЙ И ЕГО ПЕРВОНАЧАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ

PROVISION OF AGRICULTURAL MACHINERY IN UZBEKISTAN AND ITS INITIAL PROBLEMS

Toyirov Sanjarbek Saydali o'g'li 

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada sovet hokimiyati yillarida O'zbekiston qishloq xo'jaligi texnika bilan ta'minlash, undagi muammolar tizimli tadqiq qilindi. Shuningdek, tadqiqotda O'zbekiston qishloq xo'jaligini texnika bilan ta'minlashning tarixiy evolyutsiyasi va uning ahamiyati ochib berilgan.

Аннотация

В данной научной статье системно исследованы обеспечение сельского хозяйства техникой в годы советской власти в Узбекистане и существовавшие при этом проблемы. Также в исследовании раскрыта историческая эволюция обеспечения узбекского сельского хозяйства техникой и её значение.

Abstract

This scientific article systematically examines the provision of agricultural machinery in Uzbekistan during the years of Soviet power and the problems that existed in that area. The study also reveals the historical evolution of equipping Uzbek agriculture with machinery and its significance.

Kalit so'zlar: kollektiv xo'jaliklar, dehqonchilik, bog'dorchilik, mashina-traktor stansiyalari, kolxoz, qishloq xo'jalik texnikasi, sabzavotchilik, paxta va g'alla seyalkalari, atrof-muhit, mashina uskunolari.

Ключевые слова: коллективные хозяйства, фермерство, садоводство, машинно-тракторные станции, колхоз, сельскохозяйственная техника, овощеводство, хлопко- и зерносеялки, окружающая среда, машинное оборудование.

Key words: collective farms, farming, horticulture, machine-tractor stations, kolkhoz, agricultural machinery, vegetable growing, cotton and grain seeders, environment, mechanical equipment.

KIRISH

O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarixan mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmog'i bo'lib kelgan. Sovet ittifoqi davrida O'zbekiston SSR markaziy rejalashtirish tizimi doirasida agrar ishlab chiqarishning muhim qismi bo'lib, paxta va g'alla ekinlariga ixtisoslashgan edi. Sovet davrida ham bu tendensiya saqlanib qolindi, ammo texnika va texnologiyalar sohasida jiddiy muammolar kuzatildi. Ushbu maqolada O'zbekiston qishloq xo'jaligini texnika bilan ta'minlashning tarixiy o'rni, muammolari va ularni hal qilish masalalari haqida so'z yuritiladi.

Sovet davrida O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligi texnikasini markazlashtirilgan tarzda ta'minlash tizimi mavjud edi. MTSlar (Mashina-traktor stansiyalari) asosiy rol o'ynab, kolxozlar va sovxozlarga texnika xizmatlarini ko'rsatgan. Bu tizim ma'lum darajada samarali bo'lishiga qaramay, qat'iy markazlashtirilganligi sababli mahalliy ehtiyojlarni to'liq qondira olmagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqotning ilmiy asosliliigi va ishonchliligini ta'minlash maqsadida turli manbalardan foydalanilgan va bir qator metodologik usullar qo'llanilgan. Xususan, rasmiy hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy nashrlar va tadqiqotlar, statistik ma'lumotlar, davriy matbuot nashrlari chuqur ilmiy tahlil qilindi. Maqolada xolislik, qiyosiy-tahlil, iqtisodiy-statistik, tizimli tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbekiston qishloq xo'jaligi butun sovet ittifoqi uchun asosiy xomashyo etishtiradigan respublika bo'lib, paxta mamlakat xo'jaligida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Sovet ittifoqida besh yillik rejalar boshlanishi bilan va hokimiyatga bolsheviklarning davlat to'ntarishi bilan kelishi,

mintaqalardagi siyosiy beqarorlikdan so'ng bolsheviklar hukumati paxtachilikka yana alohida e'tibor qaratdi. Birinchi besh yillik davrida (1928-1932-yillar) O'zbekistonda yirik kollektiv xo'jaliklar tashkil etila boshladiki, ular asosiy paxta etishtiruvchi xo'jaliklarga aylanib bordi. Paxtachilikni rivojlantirish maqsadida qishloq xo'jalik texnikalar, turli mashinalar bilan ta'minlash maqsadida o'lkaga turli asbob-uskunalar, qishloq xo'jalik mashinalari keltirildi. 1929-yil O'zbekistonda bitta MTS bo'lgan bo'lsa, unda 490 ot kuchiga ega bo'lgan 35 ta traktor ishlab turdi. 1932-yilga kelib MTSlar soni 73 taga etdi va ulardagi traktorlar soni 2809 taga etdi, quvvati 40490 ot kuchiga teng bo'ldi. 1932-yilga kelib mexanizmlar bilan bajarilgan ishlar hajmi 12 foizga etdi.

Birinchi besh yillikda (1928-1932-yillar) paxta maydonlari 1928-yildagi 588500 gektardan 1932-yilda 989800 gektarga etdi. Shu vaqt ichida ekin maydonlari kengayibgina qolmay, paxta yalpi hosili ham ma'lum miqdorda ortdi. 1928-yilda respublikada hammasi bo'lib, 533,3 ming tonna paxta etishtirilgan bo'lsa, 1932-yilda 787,9 ming tonna paxta etishtirildi [1:2]. 1937-yilga kelib respublikadagi MTSlar soni 163 taga etdi. Bu MTSlarda umumiy quvvati 263 ming ot kuchiga teng bo'lgan 18267 traktor ishlab turdi. Ikkinchi besh yillikning oxirlarida kultivatsiya ishlari 72,7 foiz, g'oz parvarishi esa 49,1 foiz mexanizatsiyalashtirildi.

Albatta, respublikada paxtachilikni moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun ham bir qator ishlar qilindi, jumladan, 1930-yilda Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodining qurilishi qisman tugatildi. Endi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi uchun O'zbekistonda sixmola, paxta va g'alla seyalkalari, kultivator va boshqa bir qator asbob-uskunalar tayyorlanadigan bo'ldi. 1934-yil 20 oktabridan boshlab zavod to'la quvvat bilan ishlay boshladi [2:11]. 1939 yil davomida zavodda 1085 ta paxta seyalka, 2325 traktor kultivatori, 10912 ot kultivatori, 2710 plug, 455 kimyoviy dori sepish moslamasi, 864 mineral o'g'itni dalaga tarqatuvchi asbob va 2000 g'ozapoyani kovlovchi mashinalar ishlab chiqarildi [3:52].

Ikkinchi jahon urishi tugagandan so'ng paxtachilikni qayta tiklash va urishdan olingi darajaga o'tib ketish vazifalaridan kelib chiqib, 1948-yilda MTSlarga yangi traktor, 2724 ta turli agregatlar keltirildi. 383 ming tonna mineral o'g'it ajratildi. Ekin maydonlari 1946 yildagi 815.700 ga.dan 1950-yilda 1.098.100 ga.ga etdi. Shu yillar ichida hosildorlik jihatidan 1940-1941 yillar darajasidan o'zib ketildi. Jumladan, 1940-yilda gektaridan 15 foizdan hosil olingan bo'lsa, 1948-yilda hosildorlik gektar boshiga 15,6 sentnerni, 1950 yilda esa 20,35 sentnerni tashkil etdi. 1946-1950 yillarda paxta maydoni 815,6 ming ga dan 1098,1 ming ga ga, yalpi hosili esa 1118 ming t.dan 2226 ming t.ga ko'paydi [4:21]. Shu davrdan boshlab respublika qishloq xo'jaligida paxta yakkahokimligi siyosati yanada kuchaydi. Bu esa ekologiya va atrof-muhitning ifloslanishi, shuningdek, qishloq aholisi turmush tarzi-ning izdan chiqishi, oziq-ovqat mahsulotlari kamayib borishiga olib keldi. 1950-yillardan paxtachilikni rivojlantirish maqsadida MTSlardan keng foydalanishga ham alohida e'tibor berildi. Biroq bu davrda MTSlar faoliyati o'rtacha holatda bo'lib, ishda juda ko'p jiddiy xatolarga yo'l qo'yildi. Masalan, "1950-1955 yillarda traktorlar bilan bajariladigan ish hajmi 61 foizga oshgani holda, paxtaning yalpi miqdori 11 foizga oshdi, xolos. Ko'pgina MTSlarda esa qo'shib yozish hollari uchray boshladi. Bunday hol ayniqsa 1-Mirzacho'l, Urganch, Mang'it, 2-Qarshi va boshqa stansiyalarda ko'proq sodir bo'ldi" [5:225]. Mashina-traktor parklari terim davrida ham yaxshi natijalarga erisha olmadi. Xo'jaliklar mashina terimini ko'pincha qo'llab-quvvatlamadi, shu bois mashinada paxta terish yil sayin kamayib bordi. Xususan, "1953-yilda paxtani mashina bilan terish rejasini O'zbekiston MTSlari 27 foizga bajardi, 1955-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 17 foizni tashkil etdi" [6:513].

1952-yil 2-sentabrda SSSR Ministrlar Sovetining "Paxtachilikni kelgusida rivojlantirish uchun O'zSSRning Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlaridagi erlarni sug'orish va o'zlashtirish to'g'risida"gi qarorining qabul qilindi. 1953-yilga kelib KPSS MQning sentabr plenumida kolxoz tuzumini yanada rivojlantirish va mustahkamlash yo'llari, jumladan, paxtachilikni ham keskin yuksaltirish dasturi belgilab berildi. Shuningdek, KPSS MQning 1954-yil fevral-mart plenumlari paxtachilikni yanada rivojlantirishda juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Plenumdan so'ng 1954-yil noyabrda O'zbekistonda O'rta Osiyo, Kavkazorti paxtakor respublikalari va Qozog'iston SSR paxtakorlarining kengashi bo'lib o'tdi. 1955-yil 5-martda KPSS MQ va SSSR Ministrlar Sovetining "Qishloq xo'jaligini yo'nalti-rish praktikasini o'zgartirish to'g'risida"gi hamda "Paxta etishtirish va tayyorlashda moddiy manfaatdorlikni yanada oshirish choralari to'g'risida"gi qarorlari qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi, shu jumladan, paxtachilikni rivojlantirishda katta rol o'ynadi. Qarorda topshiriladigan paxta bahosini oshirish va qo'shimcha haq-mukofot to'lashning yangi tartibi, MTS bajargan ishlar uchun natura bilan to'lanadigan haqlarni 40 foiz kamaytirish, suvga to'lanadigan haqni bekor qilish, mineral o'g'itlar narhini pasaytirish ko'zda tutildi. 1953 yilda kolxozlarda 46471 ta

BIOLOGIYA

traktor mavjud bo'lgan bo'lsa, 1956-yilga kelib ularning soni 54197 taga etdi. Shuningdek, boshqa qishloq xo'jalik texnikasi ham ko'paydi.

KPSS MQning 1958-yilda bo'lib o'tgan fevral plenumida qabul qilingan "Kolxoz tuzumini yanada rivojlantirish va mashina-traktor stansiyalarini qayta tashkil etish to'g'risida"gi qarori bilan kolxoz zimmasidagi qarzlari ham kechib yuborildi [7:2].

Yuqoridagi qonunga ko'ra barcha kolxozlarga qishloq xo'jalik texnikasi sotiladigan bo'lgan bo'lsada, lekin mablag' etishmasligi xo'jaliklarni texnika bilan ta'minlashda muammolarga duch kela boshladi. Davlatdan qarzдор bo'lgan xo'jaliklar soni ortib bordi. Masalan, 1972-yilda respublika kolxozlari belgilangan rejani bajardilar. Biroq respublikadagi 23 ta kolxoz yilni zarar bilan yakunladilar, 34 ta kolxozning ishlab chiqarishdagi rentabelligi 5 foizdan oshmadi. 90 ta iqtisodiy jihatdan qoloq bo'lgan kolxozlar 1973-yil boshida turli davlat tashkilotlari 7,3 mln. rubl, Davlat bankiga esa 70,6 mln. rubl qarz bo'ldilar. Tabiiyki, bu xo'jaliklar ularni meliorativ holatini yaxshilash, chorvachilikni rivojlantirish, xo'jalikni yangi texnika bilan ta'minlashda muammolarga duch keldilar. 1985-yilda birgina Qashqadaryo oblast Koson rayonidagi "Partiya XXII syezdi" kolxozi davlatdan 4 mln. rubl qarz bo'ldi [8:3].

Xo'jaliklar mablag'lari yana boshqa turli jarayonlarda keng foydalanildi. Masalan, Farg'ona oblastining Oltiariq rayonida "Leninobod", "Jdanov", "Oxunboboyev" va "XX partiya syezdi" kolxozlari hisobidan 56,5 ming rubllik qabriston qurilgan. Sirdaryo oblast Guliston rayon "Lenin" nomli kolxoz hisobidan "O'zbekbirlashuv"ning ikkita magazini qurilgan. Urgut rayispolkomining 1972-yil 28 dekabrda buyrug'iga ko'ra "M.Gorkiy", "Oktabr" kolxozlari hisobidan aloqa bo'limi qurilgan. Samarqanddagi kolxozlar 1973-yil 1-yanvar holatiga davlatdan 91,3 mln. rubl qarzi bo'lishga qaramay kasalxona qurish uchun 1084,7 ming rubl ishlatganlar [9:2]. Andijon oblastining Moskva va Izboskan rayonlarida 1591 rubllik ikkita sil kasalliklari shifoxonasi qurilgan [10:2].

O'zbekiston SSR hududlari bog'dorchilik, meva-sabzavot etishtirishga mos bo'lganligi bois, respublikada o'simlik ko'chatlarini ishlatish, sovuqqa, qurg'oqchilikka chidamli yangi nav ko'chatlar yaratish, hosildorlikni oshirishga e'tibor qaratildi. Farg'ona vodiysi, Qo'riq erlar, Amudaryoning quyi hududlari va respublikaning yangi tog' oldi, tog'li, adir va lalmi ularni o'zlashtirish masalalariga alohida ahamiyat berildi. G'arbiy Tyan-Shan hududlaridagi yovvoyi mevali o'simliklari, O'zbekiston bog'laridagi, sovet ittifoqi-ning turli hududlaridan hamda xorijdan keltirilgan o'simliklarning madaniy navlari ekildi va bular borasida ilmiy-tadqiqot ishlari ham olib borildi. Hatto, izlanishlar davomida olimlar tomonidan Farg'ona vodiysida mevaning 59 turi, Amudaryoda 70 turi, Toshkent viloyati Bo'stonlik rayonida 100 xil turlarini o'rgandilar. Birgina 1957-yilda mevalarning 1700 mahalliy va xorijdan keltirilgan navlari tadqiq etildi. Birinchi navbatda mevalarning hosildorligi, ko'rinishlaridan tashqari ularning quruqlikka, sho'rga, kasalliklarga chidamliligi tadqiq etildi. Bu tajribalar natijasida o'rik, olma, nok, behi, grek yong'og'i, bodom, anor, anjir va boshqa mevalarning turlari ishlab chiqildi [11:36].

1971-yilda O'zbekiston SSR KP MQning 1970-yil 20-iyul "Poliz ekinlari, kartoshka, meva va uzum etishtirishni ko'paytirish, tayyorlashni yaxshilash va bu mahsulotlar bilan mahalliy aholini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori chiqdi. Qarorda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, o'zbek bog'dorchilik va uzumchilik ilmiy-tadqiqot instituti tarkibidagi Samarqand meva seleksiya tajriba stansiyasida hosildorligi yuqori bo'lgan meva turlarining 1700 navi o'rganilib, ularning 50 tasi istiqbolli deb topildi va ko'pchiligi O'zbekiston SSR standart assortiment sortlariga kiritildi. O'rikning 8, shaftolining 10, olmaning 8, nokning 9 turi, hammasi bo'lib, oliy navli 35 turi aniqlandi [12:41].

XULOSA

Umuman, respublikada paxtachilikda zarakunanda va kasalliklarga qarshi kurashda ma'lum tajriba to'plangan bo'lsada, lekin bu tajribadan meva-sabzavotchilikda etarli foydalanilmadi. "Uzselxoxzimiya" respublika ilmiy – ishlab chiqarish birlashmasining rahbar va mutaxassislarining mas'uliyatsizligi ham bu masalalarni hal qilishga imkon bermadi. Shuningdek, xo'jaliklar himoyalashning kimyoviy va biokimyoviy vositalari bilan etarli ta'minlanmadi. Bir qator oblastlarda zaharli kimyoviy moddalarni noto'g'ri saqlash va ishlatish oqibatida atrof-muhit ifloslandi. O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining kollegiyasida "Uzselxoxzimiya" birlashmasi va organlarining bog', tokzor va sabzavotlarning kasallik va zararkunandalariga qarshi kurashish bo'yicha tadbirlarning bajarilishini qoniqarsiz deb topdi. Qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlari mamlakat xalq xo'jaligidagi eng oqsayotgan tarmoq bo'lib qolaverdi. Faqat O'zbekistonning iqlimi, qishloq xo'jaligidagi tajriba qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirishda o'zgarish bo'lsa-da, tarmoqlarning moddiy texnik bazasi eng qoloq masala bo'lib, bu borada kadrlarning mas'uliyatsizligi xo'jaliklarni yanada orqada ketishga olib keldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ризаев Ф.Р. Қишлоқ хўжалигимиз равнақи // Қизил Ўзбекистон. 1964 йил 16 сентябрь
2. Харатов Г.А. Сельмаш. – Ташкент, 1936. – С. 11–13.
3. Узбекистан за 15 лет (1924–1939 г.г.). Сб. статей. – Ташкент, 1939. – С. 52 - 55.
4. Джабборов Н. Развитие орошения в Узбекистане и его перспективы. -Ташкент: Фан, 1968. -С.21.
5. Раззоқов А.Ўзбекистон пахтачилиги тарихи: (Ўтмиш ва ҳозир). -Тошкент: Ўзбекистон, 1994. -Б.225.
6. КПСС съездлари, конференциялари ва Марказий Комитет пленумларининг резолюция ва қарорлари. Т.6. 1941-1954. -Тошкент: Ўзбекистон, 1985. -Б.513.
7. Ризаев Ф.Р. Қишлоқ хўжалигимиз равнақи // Қизил Ўзбекистон. 1964 йил 16 сентябрь.
8. Қишлоғга эътибор кучайтирилсин // Совет Ўзбекистони. 1985 йил 10 февраль.
9. Ўз МА. Р-90, рўйхат – 10, йиғма жилд – 5508, - 2 varaқ.
10. Ўз МА. Р- 90, рўйхат – 10, йиғма жилд – 5508, - 2 varaқ.
11. Ўз МА Р-90, рўйхат – 10, йиғма жилд – 5501, - 36 varaқ.
12. Ўз МА Р-90, рўйхат – 10, йиғма жилд – 5501, - 41 varaқ.